

## NAMANGAN VILOYATIDAGI ARXEEOLOGIK YODGORLIKLER

*Ataxanov Samandar Salimjon o‘g‘li*

*Namangan davlat pedagogika instituti Tarix yo‘nalishi*

*I-bosqich talabasi*

*E-mail: samandarataxanov151@gmail.com*

*Tel: +99895-571-41-06*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada Namangan viloyati hududida joylashgan bronza va temir asri, antik va o‘rta asrlar davriga oid arxeologik yodgorliklar tarixi, ularning o‘lka tarixida tutgan o‘rni va ahamiyati haqida so‘z yuritiladi.

**Kalit so‘zlar:** Namangan atamasi, Namangandagi arxeologik yodgorliklar, Chust madaniyati, Munchoqtepa yodgorligi, Mug‘tepa yodgorligi, Axsikent yodgorligi.

**Аннотация:** В данной статье рассказывается об истории археологических памятников бронзового и железного веков, античности и Средневековья, расположенных на территории Наманганской области, их роли и значении в истории края.

**Annotation:** this article talks about the history of archaeological monuments dating back to the bronze and Iron Age, antiquity and the Middle Ages, their place and significance in the history of the country, located on the territory of the Namangan region.

**Ключевые слова:** термин Наманган, археологические памятники Намангана, Чустская культура, памятник мунчоктепа, памятник муттепа, памятник Аксикент.

**Keywords:** Namangan term, archaeological monuments in Namangan, Chust culture, Munchoqtepa monument, Mughtepa monument, Akhsikent monument.

**Kirish.** Namangan viloyati o‘zining boy tarixiy va madaniy merosi bilan ajralib turadi. Bu hududda joylashgan arxeologik yodgorliklar esa nafaqat O‘zbekiston, balki butun Markaziy Osiyo tarixini o‘rganish uchun katta ahamiyatga ega. Namangan arxeologiyasi qadimiy davrlardan tortib, turli madaniyatlarning izlarini o‘zida mujassam etgan. Shu bilan birga, Namangan hududining geografik joylashuvi ham uning tarixiy ahamiyatini oshiradi.

Namangan atamasining kelib chiqishi haqida tarixda turli qarashlar mavjud. Jumladan Farg‘ona vodiysi tarixi haqida mukammal ma’lumot beradigan Is’hoqxon Ibrat qalamiga mansub “Farg‘ona tarixi” asarida Namangan nomining kelib chiqishi haqida quyidagicha fikr yuritilgan:

Namangan atamasining kelib chiqishi shu hududdagi turpoq nomi bilan bog‘liq, chunki bu hududda dastlab sho‘r tuproq bo‘lgan. Forsiy tilda namak ya’ni sho‘r

tushunchasini ishlatilishi tufayli namangon so‘zi vujudga keldi. “Gon” so‘ziga to‘xtalsak chig‘atoy tilida “gon” yo‘q, Forsiy tilda qo‘llanilgan. Bu hudud dastlabki paytlarda cho‘lu biyobonlar bolgan, bundan 900-yillar avval Buxoro xonlardan Abdulloxon Farg‘ona hududiga kelib goh Sardobalar, goh Gumbazlar qurib bu hududlarni birinchilardan obod qilgan [1].

Namangan hududidagi eng qadimgi arxeologik yodgorlik bronza davriga tegishli bo‘lib, bu arxeologik qazishma ishlari bilan o‘z isbotini topgan. Jumladan, Chust madanyati va Munchoqtepa yodgorligi bronza davriga tegishli hisoblanadi.

1930-yilda Sankt-Peterburglik arxeolog B. Latinin tomonidan o‘rganilgan Namangan viloyati Norin tumani Haqqulobod shahri yaqinidagi Eylatan madaniyati xarobalari ilk temir davriga, aniqrog‘i mil. avv. VI – III asrlarga oiddir.

Munchoqtepa qabristoni Sirdaryoning o‘ng qirg‘og‘ida, hozirgi Pop shahridan 1,5-2 km janubi g‘arbda joylashgan bo‘lib, 1987 – 1994-yillar davomida ilmiy qidiruv ishlari olib borilgan. Qabristonning ustki qismi shimoli-sharqiy va janubi-g‘arbiy qismlaridagina saqlanib qolgan, qolgan hududlari davr o‘tishi bilan ustidagi tuproq tekislanib qolgan va xo‘jalik maqsadlarida foydalanilgan [2]

Munchoqtepada 2 ta tepalik yaxshi saqlanib qoladi. Munchoqtepa 1-2 deb nomlanadi, ularning bir biridan ajiratib turuvchi xususiyatini ko‘rishimiz mumkun: Munchoqtepa-1 da, yakka holda ko‘milgan qabrular bo‘lsa, Munchoqtepa-2 da, tabiiy tepe bag‘rida qurilgan sag‘analar asosiy farqlari hisoblanadi. E’tiborli tomoni yer osti sag‘analari ustida, ostodon va xumga solib jasadlarni ko‘mish bilan bog‘liq qabrular topilgan [2].

Munchoqtepa-1 qabristoni shimoli-sharqiy tepalikning markazida qazishma ishlari 1987-yil boshlandi. U yerda dastlab 6 ta, 1988-yil esa 8 ta qabr, hammasi bo‘lib 14 ta qabr ochildi. Mozor o‘z vaqtida ekin maydoniga aylantirilgan, lekin eng baland joyidan 9x11 m. o‘lchamdagи maydonning ustki qismi tozalanib, 20-30 sm chuqurlika yetganda qabir belgilari ko‘rina boshlandi. Yakka xolda qo‘yilgan qabrular tuzilishi va xususiyatlari ko‘ra ikkiga bo‘lish mumkin:

- O‘ra shakldagi go‘rlar.
- Yorma shakldagi g‘orlar.[3]

Munchoqtepa 1 qabirlarining bazilari “ayvonli laxad” tipida chunki, 1-qabr u tuzilishga ko‘ra ayvon va go‘r va jasadxonadan iboratligi uchun, bu qabr ayvon o‘lchamlari yuqori satxida 220x75 sm, pastki qismida 165x37sm, chuqurligi xozirgi yer satxidan xisoblaganda 127 sm, o‘raning shimoliy-sharqiy devoridan laxad qazilgan bo‘lib, uzunligi 205 sm, eni 25 sm, balandligi 70 sm bo‘lgan. Laxadga kirish ikki qator g‘isht bilan berkitilgan, g‘ishtlarninig keyingi qatori uzunasiga qo‘yilib ustiga ikkinchi qator bir oz qiyshaytirib qo‘yilgan.[3. B.73]

Munchoqtepadagi arxeologik izlanishlar davomida, ma’lum bo‘ldiki bu yodgorlikda yakka tartibdagi qabrular, Munchoqtepa II da esa V – VIII asrlarga oid yer

osti xilxonalar kovlab ochildi. Xilxona tuzilishi 4 qismidan iborat.

1. Kirish qismi oldidagi mahsus tekislangan maydon.
2. Kirish qismidagi inshoot ya’ni peshayvon .
- 3.Yer osti yo‘lagi va uning oxrida pastga jasadxona tushiladigan zinapoya .
4. Jasadxona

Demak, Munchoqtepa yodgorligidan topilgan buyumlar ko‘hna farg‘onaliklarning xo‘jalik yuritish, turmush tarzi va eng assosiysi islomga qadar mavjud bo‘lgan dafn marosimlari haqida ma’lumot beradi.

Namangan viloyati hududidagi so‘nggi bronza va ilk temir davriga tegishli arxeologik yodgorliklardan biri bu – “Chust madaniyati” hisoblanadi.

Bu madaniyat ilk temir davriga oid bo‘lib Farg‘ona vodiysidagi dehqonchilik madaniyati hisoblanadi. Mil.avv. 2-mingyillikning oxirgi choragi – 1-mingyillikning boshlarini o‘z ichiga oladi. Bu madaniyat Farg‘ona vodiysining shimoli-sharqiy tumanlarida uchraydi, ularning soni 80 dan ortiq hisoblanadi. Bu madaniyatga mansub 1-yodgorlik 1950-yilda arxeologlar M.E.Voronets va V.I.Sprishevskiylar tomonidan hozirgi Chust shahri yaqinidan topilgan. Bu madaniyat mahalliy aholi tomonidan Buonomozor deb atalgan. Bugungi kundagi tadqiqotlar natijasida Chust madaniyatida 3 xil turdag'i yashash joylari kavlangan hisoblanib bular jumlasiga:

1. Chayлага o‘xshash yengil uylar.
2. Yerto‘lalar.
3. G‘isht paxsadan qilingan uylar.[4]

Buonomozor manzilgohining topilishi va o‘rganilishi bilan Farg‘ona vodiysida, shu jumladan, Namangan hududida bundan 2800 – 3000-yil avval ajdodlarimiz tog’ oldi hududlarida soylar sohilida va buloqlar atrofida ilk bor sug’orma dehqonchilik bilan shug’ullanganliklaridan dalolat beradi. Ilk dehqonchilik manzilgohi sifatida O’rta Osiyoda – Joytun yodgorligi, O’zbekistonda – Zomonbobo yodgorligi, Farg‘ona vodiysida – Namangandagi Chust madaniyati hisoblanadi.

Namangan viloyati hududida joylashgan eng mashhur arxeologik yodgoliklardan biri Axsikent arxeologik majmuasi hisoblanadi. Axsikent hozirgi Namangan viloyati To‘raqo‘rg‘on tumanidagi Gulqishloq qishlog‘i hududida, Sirdaryoning o‘ng sohilida joylashgan qadimiy shahar harobasidir. Axiskent mil. avv. III – II asrlarda vujudga kelgan bo‘lib, IX – X asrlarda Farg‘ona vodiysining poytaxti bo‘lgan. Shahar to‘g‘risida Z.M. Boburning “Boburnoma” asarida tasvirlangan shaharlardan biri hisoblanadi. Bu shahar Qashqardan g‘arbiy tomonda joylashgan bo‘lib, Buyuk Ipak yo‘li karvonlari to‘xtash joyi, savdo markazi balki ishlab chiqarish markazi sifatida ham mashhur bo‘lgan deyishimiz mumkun. O’rta asrlarda Axsikent qilichi juda mashhur bo‘lgan.

Axsikentni N.I.Veselovskiy, I.A. Kastanye, M.Ye. Masson, Aleksandr Natanovich Bernshtam, Y.F.G‘ulomov, I. Axrороров, A. Anorboev, Y. Qosimov kabi

arxeolog, tarixchi va sharqshunoslar tomonidan o'rganilgan. Bugungi kunda Namangan davlat universitetining Sh. Nasriddinov va boshqa arxeologlari tomonidan Axsikent hududida arxeologik qazishma ishlari olib borilmoqda.

Axsikentni Y.F.G'ulomov rahbarligida O'zbekiston SSR fanlar akademiyasining arxeologlari 1960-yildan boshlab muttasil ravishda dala materiallarini to'plash va qazishma ishlarini boshlab yuboradilar. Tadqiqot natijasiga ko'ra quidorlik davri Axsikenti deb atalgan qismi eramizdan avvalgi III va eramizning VI asrlariga taalluqliligi ma'lum bo'ldi. Buning natijasda Axsikent yoshi yana 13 asrga ulg'aytirildi. Maydon jixatdan 25 hektar egallab turgan bu qismida o'tkazilgan qazishmalar vaqtida mudofaa devorining qoldiqlari, pishiq va xom g'ishtlar boshqa materiallar topildi. Eramizning X – XII asrlarida bu yer o'rta asr shaharning rabot qismi (tashqi shaxar) bo'lib, u yerda turar joy binolari, g'isht pishiradigan xumdonlar va boshqa binolarning qoldiqlari topildi.

Shahriston uch tomondan o'ralgan baland minorali devorlar bilan o'ralgan bo'lib, janubiy tomonidan Sirdaryo kesib o'tadi va uncha baland bo'limgan devorlari saqlanib qolgan. Shahristonning sharqiy qismida 10 ta minora bo'lib, ular bir-biridan 20 – 30 m uzoqlikda joylashgan. Shimoliy tomonda 2 ta va g'arbiy qismida esa 3 ta minora saqlanib qolgan. Sharqiy tomondagи minoralardan ikkitasini qazib ko'rildi ular faqat xom g'isht bilan urib chiqilgani ma'lum bo'ldi.

IX-XII asrlarda Farg'ona vodiysining eng gullagan davri bo'lib, 1220-yil bahorida Mo'g'ul istilochilarining bostirib kirishi va vahshiyona xatti – harakatlari tufayli butun vodiy xarob bo'lgan. Axsikent axolisi o'sha davrda 25-30 ming aholi yashashgan.

Viloyat minataqasidagi ilk o'rta asrlar davri yodgorliklaridan Kosonsoy tumanida joylashgan "Mug'tepa" yodgorligi hisoblanadi. Mug'qal'a mil.avv. I – milodiy XIII asr boshlariga oid yodgorlikdir. Mug'qal'a ikki qismidan Ark va Shahriston kabi qismlarga bo'lingan. Arkda quyosh ibodatxonasi bo'lgan va bu joy xalifa Mu'tazim davrida (833-842) buzib tashlangan. 1983-yil Shahristonda qidiruv ishlari olib borilgan, tadqiqotlarga ko'ra bu joy juda ustalik bilan himoya qilingan va qo'shimcha devor bilan mustahkamlangan. Qal'aning ark qismi shahristonning janubi-g'arbiy tomonda, Kosonsoyning tik yon bag'rida joylashgan. Yodgorlikning maydoni 4 hektarni tashkil etadi. IX – X asrlarga kelib shahar o'zining avvalgi siyosiy mavqeini yo'qota boshladi.

Mug'qal'a ko'chmanchi va dehqonlar, qo'shni davlatlar Sug'd va Choch o'rtasida o'ziga xos ko'prik edi. Bu haqida Xitoy manbalarida, jumladan, Chjan Syan, Syuan Szyan, arab tarixshunoslari Yaqubiy, Istaxriy va Z.M. Bobur, sharqshunos olimlar N.Y. Bichurin, M.S. Andreyev, V.V. Bartold asarlarida ham ma'lumotlar uchraydi.

Mil. avv. II asrning 90-yillarda keyin Farg'onaning siyosiy hayotida o'zgarishlar yuz berdi. Farg'ona hududida 10 balli kuchli zilzila sodir bo'ldi, shundan so'ng

Farg‘onaning yangi hukumdori siyosiy poytaxtni yangi joyga - Mug‘tepaga ko’chirdi. Milodiy VII asrida esa siyosiy poytaxt Mug‘tepadan Farg‘ona shahriga ko‘chirildi.

1895-yilda N.Sherbina-Kramarenko Mug‘tepa vayronalarini birinchilardan bo‘lib ko‘rgan. Kosondagi ilmiy izlanishlarni 1946-yili A.N. Bernshtam davom ettirgan. Mug‘tepa va Mug‘qal‘a yodgorliklarini o‘rganish 1951-1983-yillarda Y.A. Zadneprovskiy tomonidan olib borildi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, Namangan viloyati, o‘zining arxeologik yodgorliklari bilan nafaqat O‘zbekiston, balki butun Markaziy Osiyo tarixining bir qismi sifatida muhim ahamiyatga ega. Bu yerda topilgan ashyolar va yodgorliklar bronza va temir asri, antik davr va o‘rta asrlardagi madaniyat va san’atni o‘rganishga katta imkoniyat yaratadi. Namangan viloyatining arxeologik yodgorliklari, o‘savrlar hayoti, iqtisodiyoti, diniy qarashlari va san’ati haqida boy ma’lumotlarni taqdim etadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Исҳоқхон Тўра Ибрат. Тарихи Фарғона. – Тошкент.: “Маънавият”, 2005. – Б. 36.
2. Munchoqtepa yodgorliklari // [https://uz.wikipedia.org/wiki/Munchoqtepa\\_yodgorliklari](https://uz.wikipedia.org/wiki/Munchoqtepa_yodgorliklari) [Murojaat qilingan sana: 26.02.2025]
3. Матбобоев Б.Х. Қадимги Фарғонанинг илк ўрта асрлар даври маданияти. (Тарих фанлари доктори илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация) – Самарқанд. – Б.72
4. Chust madaniyati // [https://uzpedia.uz/pedia/chust\\_madaniyati](https://uzpedia.uz/pedia/chust_madaniyati) [12.03.2025]
5. Акбаров, Р. (2023). Вопрос электрификации Узбекистана в годы Второй мировой войны (по данным узбекской национальной прессы). Актуальные проблемы истории Узбекистана, 1(1), 443–455. извлечено от <https://inlibrary.uz/index.php/history-of-uzbekistan/article/view/16527>
6. Akbarov Rahmatillo. (2023). Coverage of issues related to social life in the uzbek national press during the second World war. International Scientific and Current Research Conferences, 1(01), 47–52. Retrieved from <https://orientalpublication.com/index.php/iscrc/article/view/1003>
7. Akbarov Rahmatillo Murtozali O‘G‘Li, . (2023). COVERAGE OF THEATER ACTIVITIES IN UZBEK NATIONAL PRESS DURING WORLD WAR II. International Journal Of History And Political Sciences, 3(06), 21–28. <https://doi.org/10.37547/ijhps/Volume03Issue06-05>